

**BOLALARNING KOMPLEKS RIVOJLANISHI INTELEKTUAL,
IJTIMOIY VA EMOTSIONAL VA JISMONIY TARBIYA
INTEGRATSIYASI**

Allaberdiyeva Qumri Xamrayevna

*termiz davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent.*

MTPP yo'nalish 3 kurs talabasi

Toshmurodova Marjona

Anottatsiya: *Ushbu maqolada bola rivojlanishida ijtimoiy va emotsional muhit yaratish intellektual rivojlantirish bosqichlari bolaning jismoniy rivojlanishida unga yaratiladigan ijtimoiy muhit talimiy jarayonlarning birgalikdagi faoliyati haqida ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Kompleks, rivojlanish, intellektual, ijtimoiy muhit, jismoniy tarbiya, integratsiya.*

Аннотация: *в статье представлена информация о совместной деятельности образовательных процессов в социальной и эмоциональной среде, созданной для развития ребенка, на этапах интеллектуального развития и в социальной среде, созданной для него в период его физического развития.*

Ключевые слова: *Комплекс, развитие, интеллектуальный, социальная среда, физическое воспитание, интеграция.*

Abstract: *This article provides information about the joint activity of educational processes in the social and emotional environment created for a child's development, the stages of intellectual development, and the social environment created for him during his physical development.*

Keywords: *Complex, development, intellectual, social environment, physical education, integration.*

Kirish: Maktabgacha ta'lim bosqichi — bu bolaning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va salohiyati namoyon bo'ladigan davrdir. Bolalar o'yin faoliyati orqali dunyoni o'rganadilar. Shu sababli, zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi rivojlantiruvchi muhitni yaratishga alohida e'tibor qaratadi. Bunda asosiy o'rin – rivojlantiruvchi markazlarga tegishlidir. Rivojlantiruvchi markaz – bu bolalarning mustaqil faoliyat yuritishiga imkon beruvchi, ularning yoshiga, ehtiyojlariga va qiziqishlariga mos tarzda tashkil etilgan faoliyat, zonasi. Ular, bolalarning, aqliy, rivojlanishi, ijodkorligi, nutq, faoliyati, jismoniy harakatchanligi shaxsiy sifatлари rivojiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Maktabdagacha ta'lim Vazirligining maktabdagacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida 5 ta markaz tashkil etilgan: "Til va Nutq", "Qurish, yasash va matematika", "San'at", "Fan va tabiat", "Syujetli va rolly o'yinlar va sahnalashtirish" markazlaridir. Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar har tamonlama rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega, chunki bolalar markazlarda erkin faoliyat olib boradi. Bu bo'lsa bolalarning bilim va ko'nikmalarni yanada chuqurroq olishiga katta yordam beradi. Tarbiyachi esa ularga yordamchi hisoblanadi. Bu esa bolalarni nutqini, erkin fikrlashini, xotirasini, jismoniy va ijtimoiy bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bolalar ongini rivojlantirishda asosiy faoliyat turi bu o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bola o'rgatilgan mashg'ulotni xotirada tez va mustahkam saqlaydi [1].

Markazlarda ham bolalar bilan o'yin orqali ishlash muhim o'rin egallaydi. Buning uchun biz pedagoglar markazlarni bolajonlar uchun qulay, chiroyli toza holda jihozlab, barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar.

Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsada, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin [2].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini yaratish, ta'limga oid tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning zarur omili hisoblanadi. Guruhda rivojlanish markazlarini yaratishda, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda, o'yin faoliyatining yetakchi ro'lini hisobga olib, bu o'z navbatida har bir bolaning emotsional holatini yaxshilaydi, ularning ijobiy histuyg'ularini, dunyoga, odamlarga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabat kompetensiyalarini rivojlantirish, o'zaro hamkorlikda bo'lish kabi maktabgacha ta'limning maqsadlari amalga oshiriladi

Rivojlantiruvchi muhit - bu maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar hayotini tashkil etishni ta'minlaydigan sanitariya-gigiyena, moddiy-texnik, psixologik, pedagogik, estetik sharoitlar majmuidir. Rivojlantiruvchi muhit - rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, tashkiliy, rag'batlantiruvchi, kommunikativ funksiyalarni bajarish uchun zarur hisoblanadi. Pedagoglar har bir bolaning yoshi va rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olishi, ular uchun katta vazifalarni qo'ymaslik uchun butun guruhni bilishi lozim [1].

Guruhdagi rivojlanish markazlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda zarur bo'lib, jihozlangan rivojlanish markazlaridagi faoliyat bolalarning qiziqishlarini yuzaga chiqarish, atrof-olamni mustaqil o'rganish, atrof-olamni ijodiy nuqtai nazar bilan aks ettirishga harakat qiladi..

Guruhdagi rivojlanish markazlari tarbiyachi uchun juda zarur hisoblanadi: Birinchidan, ular bolaning individualligini va maktabgacha bo'lgan bolaning yutuqlarini, rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda tarbiyachi uchun samarali

yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi;

Ikkinchidan, ular bolalarni faol, maqsadli va turli faoliyat turlarida ishtirok etishlarida keng imkoniyatlarni yaratishni ta'minlaydi; Uchinchidan, rivojlanish markazlari tarbiyachi bolalar faoliyatini tashkil etishi uchun maxsus joy sifatida xizmat qiladi va ta'lim-tarbiya jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qismi: Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi bolalarni intellektual, ijtimoiy-emotsional va texnologik jihatdan har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Dunyo miqyosida maktabgacha ta'limni takomillashtirishga qaratilgan turli model va metodikalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning har biri bolaning shaxsiy xususiyatlari, ta'lim muhitining o'ziga xosligi va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan. Shunday ekan, xorijiy ta'lim tajribalarini milliy maktabgacha ta'lim tizimiga moslashtirish orqali innovatsion metodikalarni yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [2].

Yuhyun Parkning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, "maktabgacha ta'lim metodikasini takomillashtirishda intellektual qobiliyat, hissiy intellekt va raqamli intellekt elementlarini uyg'un ravishda qo'llash bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi"¹. Bu yondashuv nafaqat bolalar uchun intellektual rivojlanishni ta'minlash, balki ularning hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini ham shakllantirishga yordam beradi. intellektual qobiliyat bolalarning bilim olish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirsa, hissiy intellekt ularning o'zini anglash, boshqalar bilan o'zaro munosabatlar qurish va hissiy holatlarni boshqa ko'nikmalarini o'stiradi. Raqamli intellekt esa bolalarni zamonaviy raqamli dunyoga tayyorlashga xizmat qiladi, ularni raqamli texnologiyalarni samarali ishlatish va ulardan kreativ tarzda foydalanishga o'rgatadi.

IQ(Intellektual qobiliyat) - Bolalarning mantiqiy tafakkurini va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [3]. Bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun matematik o'yinlar, mantiqiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni hal qilish faoliyatlari o'tkaziladi. Intellektual qobiliyatni rivojlantirish metodikasi, bolalarga

akademik asoslarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu bolalarning bilimga bo'lgan qiziqishini va mustahkam bilim bazasini yaratishga yordam berad.

EQ (Hissiy intellekt) - Bolalarning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ijodiy faoliyatlar, jamoaviy o'yinlar va hissiy adaptatsiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Hissiy intellektni rivojlantirish metodikasi bolalarga o'zaro munosabatlar, hissiy holatlarni boshqarish va jamoada ishlash ko'nikmalarini o'rgatadi, bu esa ularga ijtimoiy moslashishni va hissiy barqarorlikni ta'minlashda yordam beradi.

DQ (Raqamli Intellekt) - Bolalarga zamonaviy texnologiyalarni xavfsiz va samarali foydalanishni o'rgatish orqali rivojlanadi. Bu ko'nikmalar bolalarga raqamli resurslardan foydalanishni, onlayn xavfsizlikni tushunishni va texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashni o'rgatadi. Raqamli intellektni rivojlantirish metodikasi, bolalarning raqamli intellektini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, interaktiv o'yinlar, raqamli ta'lim materiallari va texnologik vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Milliy metodik yondashuvlar – maktabgacha ta'lim tizimida o'qitish va tarbiya berish jarayonini milliy qadriyatlar, an'analar, pedagogik meros va zamonaviy innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda tashkil etish usullaridir. Ushbu yondashuvlar bolalarning intellektual, hissiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar, metodlar va o'qitish strategiyalarini o'z ichiga oladi [3].

Buning uchun, jismoniy faollik va o'yinlar yordamida bolaning motor ko'nikmalarini rivojlantirish, tabiat, san'at va ijtimoiy faoliyatlar orqali bolalarda kreativlik va hissiy intellektni oshirish va ta'lim - tarbiya jarayonini diversifikatsiya qilish, har bir bolaning individual xususiyatlariga moslashtirish lozim. Maktabgacha ta'limda milliy metodik yondashuvlarning kelajak ta'lim ko'nikmalariga integratsiyasi jarayonida insonparvarlik tamoyilini asos qilib olish, innovatsiyalar sintezini amalga oshirish, milliy qadriyatlar va tarixiy an'analarga hurmatni

rivojlantirish, mda IQ EQ va DQ ko'nikmalarini uyg'unlashtirish orqali bolaning xar tomonlama rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu jarayon pedagogik metodlarni, zamonaviy texnologiyalarni va milliy qadriyatlarni muvaffaqiyatli birlashtirgan holda, bolalarga 21-asr ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Oxirgi yillarda ko'pgina pedagogik, psixologik tadqiqotlar aynan ta'limdagi qiyinchiliklarning kelib chiqishi va uni bartaraf etish sabablari va mexanizmlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatib turibdiki bolalarning oliy psixik funksiyalarning parsial ya'ni qisman rivojlanishida ortda qolishi bilan bog'liq sabablarga borib taqaladi. Ushbu muammolarni ishonchli va samarali aniqlashda neyropsixologiya, neyropedagogika alohida ahamiyat kasb etadi. A.R. Luriya va uning izdoshlari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida oliy psixik funksiyalarning tuzilishi va uning lokalizatsiyasi faoliyati natijasida o'qish va yozishni amalga oshirilishi uchun miyaning dasturlash, ixtiyoriy boshqarish (III-blok, miyaning peshana qismi) hamda axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash qismi (II-blok miyaning ensa qismi) hamkorligida amalga oshirilishi taqiqotlar natijasida aniqlangan. Bunda miyaning energetik ya'ni miyaning quvvatini ta'minlovchi qismi (I-blok miyaning ustun (stvol qismi)ning ham ahamiyati katta hisoblanadi [4].

A.R. Luriya o'z nazariyasida inson miyasini murakkab bir tuzilishga egaligi va u uch blokdan (zonadan) iborat bo'lib, har bir blok har xil yosh davrlarida va bosqichlarida shakllanishini ta'kidlab o'tgan. Ular quyidagicha o'rganiladi: I-blok, energetik yoki miyaning quvvati bloki hisoblanadi. Ushbu miyaning qismi bola ona qornidan boshlab bola 2-3 yoshga to'lgunga qadar shakllanib, o'zida retikulyatsion formatsiya va organizmning yoki biror a'zoning hayotiy faollik darajasi hamda tetiklikligi uchun javob beradi. II-blok, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash bloki uch yoshdan boshlab 7-8 yoshlarni o'z ichiga oladi. Ushbu qismga miyaning ikki yon chakka, bosh orqa yuqori va bosh orqa zonalarini o'z qamroviga oladi. Ushbu miya qismi psixik faoliyatning operatsion-texnik jihatdan ta'minlash uchun xizmat qiladi.

III-blok, dasturlash, ixtiyoriy boshqarish va nazorat bloki 7-8 yoshdan boshlab 12-15 yoshgacha shakllanib, boshning peshana zonasini o'z ichiga olib, umumiy qilib aytganda inson xulq-atvori va xatti-harakati muvofiqligi uchun javob beradi. Ushbu blokning to'liq yetilish davri to 20-21 yoshgacha davom etadi. Yuqoridagi ma'lumotlar bizga yozish, o'qish, matematik vazifalar, og'zaki nutq va uni tushunish kabi vaziyatlar oliy psixik funksiyalar ya'ni, murakkab funksional tizim bosh miya va uning funksional komponentlariga tayangan holda o'z faoliyatini amalga oshishi haqida ma'lumot beradi.

Fonematik eshitish qobiliyati, tovushlarni ajrata olish, og'zaki nutq, yozuv va o'qishni o'zlashtirish, ko'rishga oid analiz funksiyasi harf, so'zlarni tanish, ularni esda saqlash va matnni o'qishda muhim o'rin egallaydi. Har bir bolaning psixik rivojlanishi genetik individual tarzda shakllanib, ularning psixik funksiyalarining rivojlanishi uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bir funksiya oldinroq boshqalari esa keyinroq shakllanishini hech kimga sir emas. Shu bois bir bolada ko'rishga, eshitishga oid o'zlashtirish boshqasida esa muhitni tasavvur qilish imkoniyatlari shakllangan bo'lib, har bir bolaning faoliyati, harakati hamda intilishi bir-biriga o'xshamaydi va bularning ba'zilari oldinroq ba'zilari esa keyinroq rivojlanadi [4]. Aynan miyaning ushbu tarkibiy qismi boladagi ustun va zaif tomonlarini kompensatsiya qila olmasligi natijasida ijtimoiy talablarga muvofiq bo'la olmayotgani, qiyinchiliklarga duch kelayotganini bizga aynan qaysi jihatlariga birinchi navbatda e'tiborni qaratishimiz kerakligini bildiradi. Bu kabi muammolarni oldini olish albatta maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanishi, o'zining ijobiy natijasini beradi. Bunday muammoli bolalarga kuchliroq motivatsiya, emotsional qiziqtirish (o'z kuchi va qobiliyatiga undovchi rag'batlantiruvchi so'zlar) va vazifalarni miqdorlash sezilarli darajada yordam beradi. Hattoki bunday bolalarga faoliyatni o'zgartiruvchi vaziyatlar ham foydali hisoblanadi.

Faoliyatni o'zgartiruvchi vaziyatlar jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar orqali amalga oshirilishi ham mumkin. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni intellektual rivojlantirishda neyropedagogik va neyropsixologik bilimlarning o'rni

beqiyos hisoblanadi [5]. Chunki neyropedagogik, neyropsixologik yondashuv bizga oliy psixik funksiyalarning o'rganib bolalarning kuchli va zaif tomonlarini o'z vaqtida aniqlash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, guruh yoki individual tarzda korreksion ishlarni samarali tashkil qilish orqali mavjud muammolarni yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa: Hozirgi maktabgacha pedagogikada maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning mohiyati haqidagi nazariyotchi va amaliyotchilar ega bo'lgan bilimlarning to'liqligi bilan bolaning psixofizik rivojlanishidan xabardorligi o'rtasida bog'liqlik mavjud. Rivojlanishning tarixiy bosqichlari va qonuniyatlari maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida jismoniy tarbiyaning o'rni borasidagi nazariya va amaliyotni chuqur o'rganish, tahlil etish, baholash kelgusidagi vazifalarni belgilash imkonini beradi. Jismoniy faoliyatning insonning shakllanishi va rivojlanishida muhim vosita ekanligi P. F. Lesgaft, I. M. Sechenov kabi olimlar tomonidan ham ta'kidlangan. Ularning ta'kidlashicha, inson jismoniy va aqliy jihatdan birlikda va o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi, shuning uchun jismoniy tarbiyani to'g'ri tashkil etilishi yetuk shaxs sifatida shakllanishning omiliga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. - T, 2018.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.M.Kayumova -"Maktabgacha pedagogika" - T."Tafakkur"-2019.
3. B.R.Boltayev- "Maktabgacha ta'limda musiqa tarbiyasi"- Samarqand - 2019
4. Abdullayev A. Talaba va sport. - Toshkent: Moliya, 2015. - 168 b.
5. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989. - 192 с."Экономика и социум" №11(126)-1 2024 www.iupr.ru